

ESTETIK MADANIYATNING NAZARIY VA ZAMONAVIY TALQINLARI

Suvanova Dilnura Kurbanovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar
universitet o'qituvchisi

Nomozov Jamshid Saparali o'g'li, talaba

Email: dilnursuvanov51@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada estetik madaniyat tushunchasi, uning falsafiy ildizlari, jamiyat va shaxs hayotidagi o'рни, shuningdek, globallashuv sharoitida estetik qadriyatlarining transformatsiyasi tahlil qilinadi. Estetik madaniyat insonning go'zallikni idrok etish, baholash va yaratish qobiliyatlari majmui sifatida yoritilib, san'at, kundalik hayot va ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog'liqligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: estetik madaniyat, go'zallik, san'at, estetik ong, qadriyatlar.

THEORETICAL AND CONTEMPORARY INTERPRETATIONS OF AESTHETIC CULTURE

Abstract. This scientific article analyzes the concept of aesthetic culture, its philosophical roots, its role in society and in the life of the individual, as well as the transformation of aesthetic values in the context of globalization. Aesthetic culture is presented as the sum of a person's abilities to perceive, evaluate, and create beauty, and its intrinsic connection to art, everyday life, and social relations is demonstrated.

Keywords: aesthetic culture, beauty, art, aesthetic consciousness, values.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЭСТЕТИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ

Аннотация. В данной научной статье анализируется понятие эстетической культуры, ее философские корни, место в обществе и в жизни человека, а также трансформация эстетических ценностей в контексте глобализации. Эстетическая культура представлена как совокупность способностей человека воспринимать, оценивать и создавать красоту, а также продемонстрирована ее неразрывная связь с искусством, повседневной жизнью и социальными отношениями.

Ключевые слова: эстетическая культура, красота, искусство, эстетическое сознание, ценности.

Estetik madaniyat insoniyat ma'naviy taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida estetik qarashlar, did va ideallar muayyan tarixiy, ijtimoiy va madaniy sharoit ta'sirida shakllanadi. Shu bois estetik madaniyatni o'rganish nafaqat san'atshunoslik, balki falsafa, sotsiologiya va madaniyatshunoslik uchun ham dolzarb masaladir. Xar bir davrda milliy va

умуминсоний қиёфа касб этиб боровчи шахс эстетик маданияти давлатимиз раҳбарининг нигоҳидан ҳеч қачон четда қолмаган. “Энг муҳим вазифамиз, – деб таъкидлайди Ш.Мирзиёев, – мамлакатимизда тинчлик ва фаровонликни мустаҳкамлаш, одамларни, халқимизни ҳаётдан рози қилишдан иборат. Бунинг учун эл-юртимиз аввало – раҳбарларнинг фаолиятидан рози бўлиши керак. Бунинг учун ҳар бир раҳбар ўз аравасини ўзи тортиши, ўз соҳасидаги ишларнинг аҳволи учун ўзи шахсан жавоб бериши керак. Шундан кейин жамиятимизда ўзгариш бўлади, ривожланиш бўлади”²¹

Estetik madaniyat - bu shaxs va jamiyatning go‘zallikni idrok etish, baholash hamda yaratishga oid bilim, ko‘nikma va qadriyatlar tizimidir. U estetik ong, estetik did, estetik ideal va estetik faoliyatni o‘z ichiga oladi¹. Estetik madaniyat insonning borliqni nafaqat utilitar, balki ma‘naviy-estetik nuqtai nazardan anglashiga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida estetik madaniyat muhim ijtimoiy-ma‘naviy hodisa sifatida namoyon bo‘lib kelgan. Insonning borliqqa, san‘atga, go‘zallikka bo‘lgan munosabati uning dunyoqarashi, tafakkuri va ma‘naviy saviyasini belgilaydi.

Ayniqsa, globallashuv jarayonlari kuchaygan hozirgi davrda estetik madaniyatning mazmuni va talqinlari yangicha qirralar kasb etmoqda.

Шахсда эстетик маданият тарбиясининг натижаси шундан иборатки, инсонда ўз куч-қудратига ишонч ҳосил бўлади, инсон ўз қилаётган иши, бажараётган ҳунаридан мамнун бўлади, шахс қиёфасида барқарорлик вужудга келади. Эстетик маданияти юксак бўлган шахс ўткинчи кайфу сафога берилмайди, енгил йўл орқали турмушини қуришга интилмайди, бузғунчи ғояларга эргашмайди. Чунки эстетик маданият ўз ижтимоий моҳияти билан шахсларни, инсониятни гўзаллик ва ижодкорлик оламида бирлашишга чақирувчи нафис туйғули идрок ифодасидир.²²

Estetik madaniyat masalasi qadimgi falsafadan buyon mutafakkirlar e‘tiborida bo‘lgan. Platon go‘zallikni mutlaq g‘oya sifatida talqin qilgan bo‘lsa, Aristotel uni tabiat va san‘atdagi uyg‘unlik bilan bog‘lagan². Sharq mutafakkirlari, xususan, Forobiy va Ibn Sino asarlarida estetik tarbiya inson kamolotining muhim bosqichi bo‘lib kelgan.

Estetik madaniyatning tarkibiy qismlari: Estetik ong, estetik did, estetik faoliyat va estetik qadriyatlar estetik madaniyatning asosiy tarkibiy qismlaridir. Ular shaxs ma‘naviy kamolotida muhim o‘rin egallaydi. Zamonaviy talqinlar bugungi kunda estetik madaniyat ommaviy madaniyat, dizayn, reklama va raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog‘liq. Globallashuv jarayoni estetik qadriyatlarning yangicha shakllanishiga sabab bo‘lmoqda. Milliy san‘at, adabiyot, me‘morchilik va musiqa estetik madaniyatning asosiy manbalaridir. Mustaqillik yillarida estetik tarbiyaga davlat siyosati darajasida e‘tibor qaratildi.

²¹ Мирзиёев Ш.М. Танкидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлсин. –Т.: Ўзбекистон, 2017. 53-бет

²² .О.Г‘айбуллаев “Estetik madaniyat” Monografiya “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2020, 138 bet

Estetik madaniyat insonning borliqni go‘zallik nuqtayi nazaridan idrok etishi, baholashi va unga munosabat bildirishini ifodalaydigan muhim ijtimoiy-ma’naviy hodisadir. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va madaniyatlararo muloqot kuchaygan hozirgi davrda estetik madaniyatning mazmuni va talqinlari sezilarli darajada yangilanmoqda. Zamonaviy jamiyatda estetik qarashlar nafaqat san’at, balki kundalik hayot, dizayn, moda, ommaviy axborot vositalari va virtual makon bilan ham chambarchas bog‘liq. An’anaviy talqinda estetik madaniyat insonning san’at asarlarini tushunish, his etish va baholash qobiliyati sifatida qaralgan. U go‘zallik, uyg‘unlik, nafosat, fojiaiviylik va kulgililik kabi estetik kategoriyalar orqali namoyon bo‘ladi. Zamonaviy yondashuvlarda esa estetik madaniyat kengroq ma’noga ega bo‘lib, insonning hayot tarzi, tafakkuri, muloqot madaniyati va hatto texnologiyalardan foydalanish uslubini ham qamrab oladi.

Axborot texnologiyalari rivoji natijasida virtual makon estetikasi shakllandi. Ijtimoiy tarmoqlar dizayni, raqamli san’at, multimedia loyihalari va vizual kontent estetik didga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda insonning estetik qarashlari ko‘pincha ekran madaniyati orqali shakllanadi. Zamonaviy estetik madaniyat ommaviy madaniyat bilan uzviy bog‘liq. Kino, pop-musika, reklama va moda estetik ideallarni tez va keng ommaga yetkazadi. Bu holat bir tomondan estetik qadriyatlarning ommalashuviga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan ularning soddalashuvi va tijoratlashuviga ham olib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, , estetik madaniyatning zamonaviy talqinlari jamiyat hayotida tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Raqamli texnologiyalar, ommaviy madaniyat va globallashuv jarayonlari estetik qarashlarning shakllanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy estetik madaniyat milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligida rivojlanib, shaxsning ma’naviy yetukligi, estetik didi va ijodiy tafakkurini yuksaltirishga xizmat qiladi. Shu bois estetik madaniyatni rivojlantirish va unga ongli munosabatda bo‘lish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Estetik madaniyat jamiyat ma’naviy taraqqiyotining muhim omili bo‘lib, u shaxsning go‘zalikni anglash va yaratish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлсин. –Т.: Ўзбекистон, 2017
- 2.O.G‘aybullayev “Estetik madaniyat” Monografiya “Navro‘z” nashriyoti, Toshkent – 2020
3. Qodirov B. Estetika asoslari. Toshkent, 2015.
4. Forobiy A.N. Fozil odamlar shahri. Toshkent, 1993.